



Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-avgust)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 6 440,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 109,5% ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,6 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 5,2 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 3,3 martaga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 29,4 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 0,9 % ga pasayishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33,1 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5386,9 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,6 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,8 % ni (2019- yilning yanvar-avgust oylarida - 4,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,3 % (6,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 11,3 % (11,1 %) va quyi texnologiyalisi - 80,6 % (78,5 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,3 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 24,0 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,6 %), mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 8,3 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 89,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,5 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 48,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 1,9 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 79,9 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

Tarmoqlar nomi	Mahsulot hajmi, mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Ishlab chiqaradigan sanoat	5 386,9	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 304,8	24,2
Ichimliklar ishlab chiqarish	243,9	4,5
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1 504,8	27,9
Kiyim ishlab chiqarish	951,7	17,7
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	72,5	1,3
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	15,3	0,3
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	29,7	0,6
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	7,1	0,1
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	6,1	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	38,5	0,7
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	144,5	2,7
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	82,0	1,5
Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	295,5	5,5
Metallurgiya sanoati	30,4	0,6
Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	188,7	3,5
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	6,2	0,1
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	188,8	3,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	35,6	0,7
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	11,4	0,2
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	8,7	0,2
Mebel ishlab chiqarish	87,7	1,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	125,8	2,3
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	7,2	0,1



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 23,3 ming tonna paxta tolasi (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 51,9 % ga o'sgan), 85,8 ming tonna un (6,8 %), 10,9 ming tonna o'simlik yog'i (tozalangan) (33,0 %) mahsulotlari ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	15,4	23,3	7,9
Aroq – ming litr 100 % spirt	261,2	238,0	-23,2
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	29,2	15,1	-14,1
Vino, ming litr	876,0	366,4	-509,6
Un, ming tonna	80,3	85,8	5,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	7,7	10,9	3,2




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



2019- yil,
% da



2020- yil,
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 963,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (15,0 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,3 % martaga oshganligi kuzatildi.






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	0,0	3 197,6	3 197,6
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	51,0	59,6	8,6



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	22,2	30,0	7,8
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	2,6	3,1	0,5
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	13,1	15,6	2,5
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	2,3	-	-2,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 35,1 % ga, oqava suvlarni shlami 19,2 % ga hamda shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 19,1 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 677,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 6,9 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 57,1 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 64,6 % dan 63,7 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,7 % (2019- yil yanvar-avgust oylarida 1,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 43,4 % ni, shuningdek, Namangan tumani 10,9 % ni, Mingbuloq tumani 7,7 % ni, Uchqo'rg'on tumani 6,7 % ni, To'raqo'rg'on tumani 5,8 % ni hamda Kosonsoy tumani 5,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (106,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Norin (123,1 %), Uchqo'rg'on (118,6 %), Chortoq (115,8 %), Pop (110,6 %), To'raqo'rg'on (108,7 %), Kosonsoy (106,4 %), Mingbuloq (6,6 m) tumanlarida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat jami	3 677,4	100,0	106,9
Namangan sh.	1 597,5	43,4	97,4
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	283,6	7,7	6,6 m
Kosonsoy	205,0	5,6	106,4
Namangan t	401,1	10,9	92,5
Norin	62,3	1,7	123,1
Pop	175,7	4,8	110,6
To'raqo'rg'on	215,5	5,8	108,7
Uychi	150,3	4,1	77,6
Uchqo'rg'on	245,3	6,7	118,6
Chortoq	92,2	2,5	115,8
Chust	149,5	4,1	101,1
Yangiqo'rg'on	99,4	2,7	103,8

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 47,1 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 12,4 % ni, Pop tumani esa 8,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Chortoq tumani (147,1 %), Kosonsoy tumani (146,3 %) hamda Uychi tumanida (139,9 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat jami	1 334,9	100,0	109,6
Namangan sh.	627,5	47,1	104,1
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	15,9	1,2	121,1
Kosonsoy	33,9	2,5	146,3
Namangan t	115,4	8,6	94,1
Norin	29,4	2,2	122,5
Pop	118,5	8,9	119,8
To'raqo'rg'on	42,3	3,2	70,6
Uychi	60,4	4,5	139,9
Uchqo'rg'on	165,7	12,4	128,7
Chortoq	47,3	3,5	147,1
Chust	40,8	3,1	123,6
Yangiqo'rg'on	37,9	2,8	102,4

Hududlar kesimida noziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 41,6 % ni, shuningdek, Namangan tumani 12,2 % ni, Mingbuloq tumani 11,4 % ni hamda Kosonsoy tumani 7,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, noziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Mingbuloq (9,0 marta), To'raqo'rg'on (125,2 %), Norin (123,6 %) hamda Yangiqo'rg'on (104,6 %) tumanlarida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mrld. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat jami	2 342,5	100,0	105,4
Namangan sh.	970,0	41,6	93,5
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	267,7	11,4	9,0 m
Kosonsoy	171,1	7,3	100,9
Namangan t	285,7	12,2	91,9
Norin	32,9	1,4	123,6
Pop	57,2	2,4	95,3
To'raqo'rg'on	173,3	7,4	125,2
Uychi	89,9	3,8	59,8
Uchqo'rg'on	79,6	3,4	102,0
Chortoq	44,9	1,9	94,6
Chust	108,7	4,6	94,6
Yangiqo'rg'on	61,5	2,6	104,6



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1351,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 21,0 % ni tashkil etdi.




**Shahar va tumanlar bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-avgust mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Viloyat jami	6 440,6	109,5
Namangan sh.	2 470,7	99,2
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	377,5	113,1
Kosonsoy	228,7	101,8
Namangan t	537,5	104,0
Norin	214,9	135,2
Pop	298,8	105,7
To'raqo'rg'on	937,5	103,7
Uychi	370,0	89,0
Uchqo'rg'on	510,6	113,8
Chortoq	107,7	105,5
Chust	281,9	107,6
Yangiqo'rg'on	104,8	99,1



**Shahar va tumanlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Norin (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 135,2 %), Uchqo'rg'on (113,8 %), Mingbuloq (113,1 %), Chust (107,6 %) hamda Pop (105,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Mingbuloq (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 6,6 marta), Norin (123,1 %), Chortoq (115,8 %), Uchqo'rg'on (118,6 %) , Pop (110,6 %), To'raqo'rg'on (108,7 %), Kosonsoy (106,4 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.



**Viloyat jami sanoat
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 38,4 % i) hamda To'raqo'rg'on (14,6 %), Namangan (8,3 %), Uchqo'rg'on (7,9 %), va Mingbuloq (5,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangiqo'rg'on (1,6 %) hamda Chortoq (1,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (4 140,6 ming so'm), Namangan shahrida (3 925,6 ming so'm), Namangan tumani (2 996,2 ming so'm), Mingbuloq tumani (2 989,2 ming so'm) va Uchqo'rg'on (2 967,2 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 281,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (480,3 ming so'm), Chortoq (541,0 ming so'm), Chust (1 061,0 ming so'm), Kosonsoy (1 092,1 ming so'm) va Norin (1 311,0 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri
keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, ming so'm)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Viloyat jami	2 281,6	1 302,7
Namangan sh.	3 925,6	2 538,1
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	2 989,2	2 245,2
Kosonsoy	1 092,1	979,1
Namangan t	2 996,2	2 235,8
Norin	1 311,0	379,9
Pop	1 359,4	799,5
To'raqo'rg'on	4 140,6	952,1
Uychi	1 735,6	704,8
Uchqo'rg'on	2 967,2	1 425,2
Chortoq	541,0	462,8
Chust	1 061,0	562,7
Yangiqo'rg'on	480,3	455,8

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1 302,7 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida 2 538,1 ming so'mni, Mingbuloq tumanida 2 245,2 ming so'mni, Namangan tumanida 2 235,8 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 1 425,2 ming so'mni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi bo'yicha eng past ko'rsatkich esa Norin (379,9 ming so'm), Yangiqo'rg'on

(455,8 ming so'm), Chortoq (462,8 ming so'm) va Chust (562,7 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 083,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,9 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiyo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (98,4 %), va Chust (67,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush Mingbuloq (14,2 %), To'raqo'rg'on (17,8 %), Uchqo'rg'on (19,8 %), Norin (28,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 137 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 450 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 39,9 % i) Namangan shahriga, 474 tasi (7,7 %) Uychi tumaniga, 469 tasi (7,6 %) Namangan tumaniga, 456 tasi (7,4 %) Chust tumaniga, 419 tasi (6,8 %) Kosonsoy tumaniga, 405 tasi (6,6 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




2020- yilning yanvar-avgust oyida viloyatda 986 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 234 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 23,7 %) Namangan shahrida, 112 tasi (11,4 %) Namangan tumanida, 110 tasi (11,2 %) Uychi tumanida, 91 tasi

(9,2 %) To'raqo'rg'on tumanida, 75 tasi (7,6 %) Chust tumanida hamda 69 tasi (7,0 %) Kosonsoy tumanida tashkil etildi.



**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 450 ta), Uychi (474 ta), Namangan (469 ta), Chust (456 ta), Kosonsoy (419 ta), To'raqo'rg'on (405 ta) tumanlari qayd etildi.



2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (169 ta), Chortoq (240 ta), Pop (247 ta), Yangiqo'rg'on (258 ta), Norin (274 ta) hamda Uchqo'rg'on (276 ta) tumanlari qayd etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (69) 227-84-80